



## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyun)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalarini tomonidan 29,5 trn. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 98,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (70,4 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 5,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 12,0 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 2,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 64,0 % ga o'sish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,1 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,8 % ini tashkil etdi.



### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish - 12,2 % ga oshgan boʻlsa, sheben qazib olish 1,7 % ga, tabiiy gaz - 12,7 % ga, gazli kondensat - 41,8 %, hamda graviy qazib olish - 84,5 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Neft, <i>ming t.</i>	266,2	298,8	-32,6
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	663,4	385,8	277,6
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	20271,4	17706,1	2565,3
Sheben, <i>t.</i>	227396,3	223504,6	3891,7
Graviy, <i>t.</i>	82665,0	12792,6	69872,4



### Ishlab chiqarish sanoati


2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarish sanoati korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,7 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 70,4 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqarish sanoati tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqarish sanoati tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,6 % ni (2019-yil yanvar-may oylarida - 6,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 22,4 % (24,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,4 % (29,1 %) va quyi texnologiyali - 42,6 % (40,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 29,7 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 88,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 8,3 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 10,0 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,0 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 11,0 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 607,0 ming dona tamaki mahsuloti (2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 28,1 % ga o'sgan), 630,0 dona traktor (4,7 %), 4 319,7 ming litr uzum vinosi (21,4 %), 29 468,1 litr pivo mahsulotlari (25,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




### Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	156 361,0	139 616,0	-16 745,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	9 564,0	7 372,5	-2 191,5
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	8 883,6	9 040,2	156,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	21 649,0	40 900,0	19 251,0
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	232 778,0	185 288,0	-47 490,0





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,2 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,5 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 64,0 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	167,9	201,8	-33,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7 020,0	7 482,8	462,8
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	189 501,0	581 398,0	391 897,0



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	80 007,6	80 408,4	400,8
Xavfli bo'lmagan chiqindilar yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	46 549,5	35 445,2	-10 819,2
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mln. so'm	66 023,2	68 446,6	2 423,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,5 % ga, hamda tabiiy suv, suvni qayta ishlash va ta'minlash 3,6 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek, xavfli bo'lmagan chiqindilar yig'ish bo'yicha xizmatlarda – 23,8 % ga pasayish kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10,8 trln.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 58,0 % dan 56,4 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,7 % (2019-yil yanvar-iyun oylarida 5,9 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 20,6 % ni, shuningdek, Yashnobod tumani 14,5 % ni, Chilonzor tumani 9,2 % ni, Olmazor tumani 9,0 % ni hamda Sirg'ali tumani 9,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida shahar o'sish sur'ati (104,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bektemir (107,8 %), Mirobod (106,0 %), Yashnobod (104,8 %) , Sirg'ali tumanida (104,5 %) qayd etildi.





**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>10 840,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,6</b>
Uchtepa	604,9	20,6	97,9
Bektemir	2 227,7	5,3	107,8
Yunusobod	569,6	7,9	100,5
Mirzo Ulug'bek	856,1	8,3	90,7
Mirobod	903,9	7,1	106,0
Shayxontohur	768,2	9,0	97,3
Olmazor	978,0	8,2	94,9
Sirg'ali	887,3	4,5	104,5
Yakkasaroy	483,8	14,5	91,9
Yashnabod	1 569,1	9,2	104,8
Chilonzor	992,0	5,6	95,7

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 39,6 %, shuningdek, Sirg'ali 11,7 % ni, Yashnobod tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mirobod (109,3 %), Sirg'ali (108,9 %), Bektemir (108,6 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>4 114,6</b>	<b>100,0</b>	<b>105,7</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>308,2</b>	<b>7,5</b>	<b>104,4</b>
<b>Bektemir</b>	<b>1 630,5</b>	<b>39,6</b>	<b>108,6</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>179,4</b>	<b>4,4</b>	<b>104,6</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>178,8</b>	<b>4,3</b>	<b>104,6</b>
<b>Mirobod</b>	<b>160,8</b>	<b>3,9</b>	<b>109,3</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>136,6</b>	<b>3,3</b>	<b>100,5</b>
<b>Olmazor</b>	<b>355,2</b>	<b>8,6</b>	<b>101,9</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>483,1</b>	<b>11,7</b>	<b>108,9</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>95,1</b>	<b>2,3</b>	<b>106,6</b>
<b>Yashnabod</b>	<b>355,8</b>	<b>8,6</b>	<b>100,4</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>231,1</b>	<b>5,6</b>	<b>98,2</b>

Hududlar kesimida noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumaniga to'g'ri kelib, 12,5 % ni, shuningdek, Mirobod 12,2 % ni, Yashnobod 11,9 % ni, Mirzo Ulug'bek 11,1 % ni hamda Olmazor 10,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (113,0 %), Bektemir (105,8 %), Mirobod (105,3 %), Yunusobod (99,5 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>6 108,8</b>	<b>100,0</b>	<b>97,7</b>
Uchtepa	296,8	4,9	92,0
Bektemir	597,2	9,8	105,8
Yunusobod	350,2	5,7	99,5
Mirzo Ulug'bek	677,3	11,1	87,6
Mirobod	743,1	12,2	105,3
Shayxontohur	584,4	9,6	96,4
Olmazor	622,8	10,2	91,4
Sirg'ali	362,8	5,9	98,8
Yakkasaroy	388,7	6,4	89,0
Yashnobod	724,8	11,9	113,0
Chilonzor	760,9	12,5	95,0



O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari


	2020-yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>29 521,8</b>	<b>98,8</b>
Uchtepa	1 563,0	105,6
Bektemir	2 703,9	108,8
Yunusobod	1 924,8	108,6
Mirzo Ulug'bek	2 330,4	100,3
Mirobod	3 026,2	89,8
Shayxontohur	1 798,8	98,9
Olmazor	2 178,0	102,0
Sirg'ali	2 332,6	108,3
Yakkasaroy	1 421,8	107,6
Yashnobod	8 529,6	106,9
Chilonzor	1 712,7	104,0




**Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % da**

Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Mirobod (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 89,8%), Shayxontohur (98,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da**



**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Mirobod (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,3 %), Sirg'ali (108,9 %), Bektemir (108,6 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.






### Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 28,9 %), Mirobod (10,3 %), Bektemir (9,2 %), Sirg'ali (7,9 %) hamda Mirzo Ulug'bek (7,9 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Yakkasaroy (4,8 %) hamda Uchtepa (5,3 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.





**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11,5 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 79,2 %), Chilonzor tumanida (74,6 %), Sirg'ali tumanida (71,1 %), Uchtepa (57,7 %), Yakkasaroy (55,2 %), Yunusobod (41,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnabod (17,0 %), Mirobod (19,2 %) va Shayxontohur (31,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda respublikada 14,9 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 2,0 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 13,9 %) Olmazor, 1,8 mingtasi (12,6 %) Chilonzor, 1,8 mingtasi (12,1 %) Uchtepa, 1,6 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,3 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur, 1,2 mingtasi (8,7 %) Sirg'ali tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020-yil yanvar-iyun oyida shaharda 958 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Shulardan 140 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,6 %) Olmazor, 124 tasi (12,9 %) Chilonzor, 99 tasi (10,3 %) Uchtepa, 96 tasi (10,0 %) Yunusobod tumanlarida tashkil etildi.




### Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 074 ta), Chilonzor (1 882 ta), Uchtepa (1 807 ta), Yunusobod (1 633 ta) hamda Shayxontohur (1 353 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar  
(1 iyul 2020 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar  
(1 iyul 2020 yil holatiga)



2020-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (497 ta), Mirobod (838 ta), Yakkasaroy (1 158 ta), Yashnobod (1 191 ta), Mirzo Ulug'bek (1 229 ta) tumanlarida qayd etildi.



**TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA  
MATERIALLAR ISHLAB CHIQUARISHNI  
MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA  
OSHIRILISHI**

Toshkent shahar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 175 ta loyiha bo'yicha 2 949,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 36,5 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 514 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 1,2 martaga oshdi.

**TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR  
ISHLAB CHIQUARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING ASOSIY  
KO'RSATKICHLARI**

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	149	175
Korxonalar soni, birlik	147	93
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1126,3	2949,1
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar	14,7	36,5
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	213	514

Sanoat statistikasi  
bo'limi

Tel.: (71) 230-88-16